Tadqiqot miqdoriy yondashuv asosida donni qayta ishlash korxonalarida alohida mahsulotlar bo'yicha kompleks ishlab chiqarish xarajatlarini taqsimlash va qo'shimcha mahsulot ishlab chiqarishda muvaffaqiyatsizlikka olib keladigan asosiy omillarni aniqlash, ishlab chiqilgan ssenariy orqali don mahsulotlarining alohida turlari bo'yicha kompleks ishlab chiqarish xarajatlarining samaradorligini baholash, sun'iy intellekt texnologiyalari asosida un va omixta yem mahsulotlarining kompleks ishlab chiqarish xarajatlarini taqsimlash va qo'shimcha mahsulot ishlab chiqarishni boshqarishning moliyaviy strategiyasi bo'yicha 2030-yilgacha mo'ljallangan o'rta va uzoq muddatli prognoz ko'rsatkichlari ilmiy asoslangan maqbul qarorlar qabul qilishga qaratiladi. Maqsadimiz – donni qayta ishlash korxonalarida kompleks ishlab chiqarish xarajatlarini optimal taqsimlash va qo'shimcha mahsulot ishlab chiqarishdagi o'zaro bog'liq elementlarni umumlashtirish va yaxlit tizimga keltirishdan iborat.

Metodologiya. Kompleks ishlab chiqarish xarajatlari va qo'shimcha mahsulot ishlab chiqarish tarkibiga matematik tavsif berishda ularni ifodalovchi miqdor va sifat ko'rsatkichlarini e'tiborga olish zarur. Shu sababli biz donni qayta ishlash korxonalarida kompleks ishlab chiqarish xarajatlarini taqsimlash va qo'shimcha mahsulot ishlab chiqarish

jarayonlariga matematik tavsif berish shartlariga muvofiq un mahsulotlari va omixta yem ishlab chiqarish jarayonlarini hisoblash modellari va algoritmlarini ishlab chiqdik.

I. Donni qayta ishlash korxonalarida un mahsulotlari ishlab chiqarish xarajatlarini hisoblash algoritmlari quyidagi tartibda ishlab chiqildi:

1. Donning dastlabki ulgurji qiymati (D_{uq}) un mahsuloti ishlab chiqarish uchun sarflanadigan don miqdori (D_{dm}) bilan don ulgurji bahosi (b_{du}) ko'paytmasiga teng

$$D_{uq} = D_{dm} * b_{du}$$

2. Donning jami ulgurji qiymati (D_{tq}) (transport xarajatlari qo'shilgan holda) un mahsulotlari ishlab chiqarish uchun sarflanadigan donning umumiy ulgurji qiymati (D_{uq}), temir yo'l xarajatlari (X_{ty}), avtomobil xarajatlari (X_{av}), ichki tashish xarajatlari (X_{it}) va jamg'arma foizi (X_{jf}) yig'indisiga teng

$$D_{tq} = D_{uq} + X_{ty} + X_{av} + X_{it} + X_{jf}$$

3. Qo'shimcha mahsulotlar qiymati (M_{qq}) kepek mahsuloti bilan bug'doy chiqindisi (M_{bc}) qiymatining yig'indisiga teng

$$M_{qq} = M_{kp} + M_{bc}$$

4. Qo'shimcha mahsulotlar qiymati ajratilgandan keyingi donning umumiy qiymati (D_{yq}) transport xarajatlari qo'shilgan don qiymati (B_{tq}) bilan qo'shimcha mahsulotlar qiymati (M_{qq}) ayirmasiga teng

$$D_{yq} = D_{tq} - M_{qq}$$

5. Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilar to'lanadigan sarf-xarajatlar (X_{mp}) elektroenergiya sarfi (S_{ee}), suv resurslari sarfi (S_{sr}), gaz sarfi (S_{gz}) va boshqa resurslar sarfi (S_{br}) yig'indisiga teng

$$S_{mp} = S_{ee} + S_{sr} + S_{gz} + S_{br}$$

6. Mahsulotni ishlab chiqarish uchun ishlatiladigan har xil turdagi boshqa materiallar sarfi (S_{bm}), ip (S_{ip}), etiketka (S_{ek}), qop (S_{qp}) va boshqa materiallar sarfi (S_{bm}) yig'indisiga teng

$$S_{bm} = S_{ip} + S_{ek} + S_{qp} + S_{bm}$$

7. Bevosita va bilvosita xarajatlar (X_{bb}) yoqilg'i (S_{yq}), ehtiyot qismlar (S_{eq}), qurilish materiallar (S_{qm}), har xil turdagi boshqa materiallar (S_{bm}), mol yetkazib beruvchilar va pudratchilar to'lanadigan sarf-xarajatlar (S_{mb}), ish haqi (S_{is}), yagona ijtimoiy to'lov (S_{it}), asosiy vositalar amortizatsiyasi (S_{am}) va boshqa xarajatlar (S_{bs}) yig'indisiga teng

$$X_{bb} = S_{yq} + S_{eq} + S_{qm} + S_{bm} + S_{mb} + S_{is} + S_{it} + S_{am} + S_{bs}$$

8. Ishlab chiqarish tannarxi (T_{is}) don qiymati (D_{yq}), tashish, saqlash va ishlab chiqarishda yo'qotilgan don qiymati (Q_{yb}) va bevosita va bilvosita xarajatlar (X_{bb}) yig'indisiga teng

$$T_{is} = D_{yq} + Q_{yb} + X_{bb}$$

9. Boshqa operatsion xarajatlar (X_{bo}) yer solig'i (SQ_{er}), suv solig'i (SQ_{sv}), mulk solig'i (SQ_{ms}), soliqning boshqa turlari (SQ_{bt}) va boshqa turdagi xarajatlar (X_{bt}) yig'indisiga teng

$$X_{bo} = SQ_{er} + SQ_{ms} + SQ_{bt} + X_{bt}$$

10. Davr xarajatlari (X_{dr}) ma'muriy – boshqaruv xarajatlari (X_{mb}), sotish xarajatlari (X_{ri}) va boshqa operatsion xarajatlar (X_{bo}) yig'indisiga teng

$$X_{dr} = X_{mb} + X_{ri} + X_{bo}$$

11. Umumiy ishlab chiqarish xarajatlari (X_{um}) ishlab chiqarish tannarxi (T_{is}), davr xarajatlari (X_{dr}) va moliyaviy faoliyat bo'yicha xarajatlar (X_{mf}) yig'indisiga teng

$$X_{um} = T_{is} + X_{dr} + X_{mf}$$

12. Umumxo'jalik faoliyatining foydasi (F_{ux}) mahsulotning ulgurji qiymati (Q_{ss}) (qo'shilgan qiymat solig'isiz) bilan umumiy xarajatlar (X_{um}) ayirmasiga teng

$$F_{ux} = Q_{ss} - X_{um}$$

13. Foyda solig'i (S_{fs}) soliq to'langunga qadar foyda (F_{ts}) bilan foyda solig'i stavkasi (F_{ss}) ko'paytmasiga teng

$$S_{fs} = F_{ts} * F_{ss}$$

14. Qo'shilgan qiymat solig'i (Q_{qs}) sotiladigan mahsulot bilan (M_{rq}) soliq stavkasi (S_{qs}) ko'paytmasiga teng

$$Q_{qs} = M_{rq} * S_{qs} / (S_{qs} + 100)$$

15. Mahsulotning ulgurji sotish qiymati (qo'shilgan qiymat solig'i bilan birga) (Q_{uq}) mahsulotning ulgurji qiymati (Q_{ss}) (qo'shilgan qiymat solig'isiz) bilan qo'shilgan qiymat solig'i (Q_{qs}) ayirmasiga teng

$$Q_{uq} = Q_{ss} - Q_{qs}$$

16. Sof foyda (F_{sf}) umumxo'jalik faoliyatining foydasi (F_{ux}) bilan soliq to'langunga qadar foyda (F_{ts}) ayirmasiga teng

$$F_{sf} = F_{ux} - F_{ts}$$

17. Rentabellik darajasi:

- 17.1. Ishlab chiqarish tannarxiga nisbatan rentabellik darajasi (R_{ut}) sof foydaning (F_{sf}) ishlab chiqarish tannarxiga nisbat ko'rinishida ifodalanadi:

$$R_{ut} = F_{sf} * 100 / T_{is}$$

- 17.2 Umumiy xarajatlarga nisbatan rentabellik darajasi (R_{ut}) sof foydaning (F_{sf}) umumiy xarajatlarga (X_{um}) bo'lgan nisbat ko'rinishida ifodalanadi:

$$R_{ut} = F_{sf} * 100 / X_{um}$$

15. Un mahsulotlari bo'yicha kompleks ishlab chiqarish xarajatlari va qo'shimcha mahsulot ishlab chiqarish shartlari quyidagi tengsizliklar ko'rinishida ifodalanadi:

$$D_{uq} < D_{tq}; M_{qq} < D_{tq}; T_{is} > X_{be}; X_{um} > T_{is}; F_{sf} < F_{ux}$$

II. Donni qayta ishlash korxonalarida omuxta yem mahsulotlari ishlab chiqarish xarajatlarini hisoblash algoritmlari quyidagi tartibda ishlab chiqildi:

1. Xom ashyoning umumiy qiymati (Q_{xa}) kepek (X_{kp}), tariq (X_{tr}), makka doni (X_{md}), un (X_{un}), arpa (X_{ar}), bug'doy chiqindisi (70 – 85%) (X_{ch}), bug'doy chiqindisi (50 – 70%) (X_{sh}), ohak uni (X_{ou}) va mexanik yo'qotishlar miqdorlari (X_{my}) ular har birining baholari ko'paytmasi yig'indisiga teng

$$Q_{xa} = X_{kp} * b_{kp} + X_{tr} * b_{tr} + X_{md} * b_{md} + X_{un} * b_{un} + X_{ar} * b_{ar} + X_{ch} * b_{ch} + X_{sh} * b_{sh} + X_{ou} * b_{ou} + X_{my}$$

bu yerda b_{kp} , b_{tr} , b_{md} , b_{un} , b_{ar} , b_{ch} , b_{sh} , b_{ou} , b_{my} – xom ashyolarning bahosi

2. Jami ishlab chiqarish tannarxi (T_{ic}) xom ashyoning umumiy qiymati (Q_{xa}), yordamchi materiallar (S_{ym}), elektroenergiya sarfi (S_{ee}), temir yo'l xarajatlari (X_{ty}), avtomobil xarajatlari (X_{av}), ichki tashish xarajatlari (X_{it}), ehtiyot qismlar (S_{eq}), ish haqi (S_{is}), yagona ijtimoiy to'lov (S_{it}), asosiy vositalar amortizatsiyasi (S_{am}), uskunani saqlash xarajatlari (X_{us}) va boshqa xarajatlarning (S_{bs}) yig'indisiga teng

$$T_{ic} = Q_{xa} + S_{ym} + S_{ee} + X_{ty} + X_{av} + X_{it} + S_{eq} + S_{is} + S_{it} + S_{am} + X_{us} + S_{bs}$$

3. Boshqa operatsion xarajatlari (X_{bo}) yer solig'i (SQ_{er}), suv solig'i (SQ_{sv}), mulk solig'i (SQ_{ms}), soliqning boshqa turlari (SQ_{bt}) va boshqa turdagi xarajatlari (X_{bt}) yig'indisiga teng

$$X_{bo} = SQ_{er} + SQ_{ms} + SQ_{bt} + X_{bt}$$

4. Davr xarajatlari (X_{dr}) ma'muriy – boshqaruv xarajatlari (X_{mb}), sotish xarajatlari (X_{rl}) va boshqa operatsion xarajatlari (X_{bo}) yig'indisiga teng

$$X_{dr} = X_{mb} + X_{rl} + X_{bo}$$

5. Umumiy ishlab chiqarish xarajatlari (X_{um}) ishlab chiqarish tannarxi (T_{is}), davr xarajatlari (X_{dr}), moliyaviy faoliyat bo'yicha xarajatlari (X_{mf}) yig'indisiga teng

$$X_{um} = T_{ic} + X_{dr} + X_{mf}$$

6. Umumxo'jalik faoliyatining foydasi (F_{ux}) mahsulotning ulgurji qiymati (Q_{ss}) (qo'shilgan qiymat solig'isiz) bilan umumiy xarajatlari (X_{um}) ayirmasiga teng

$$F_{ux} = Q_{ss} - X_{um}$$

7. Foyda solig'i (S_{fs}) soliq to'langunga qadar foyda (F_{ts}) bilan foyda solig'i stavkasi (F_{ss}) ko'paytmasiga teng

$$S_{fs} = F_{ts} * F_{ss}$$

8. Qo'shilgan qiymat solig'i (Q_{qs}) sotiladigan mahsulot bilan (M_{rq}) soliq stavkasi (S_{qs}) ko'paytmasiga teng

$$Q_{qs} = M_{rq} * S_{qs} / (S_{qs} + 100)$$

9. Mahsulotning ulgurji qiymati (qo'shilgan qiymat solig'i bilan birga) (Q_{uq}) mahsulotining ulgurji qiymati (Q_{ss}) (qo'shilgan qiymat solig'isiz) bilan qo'shilgan qiymat solig'i (Q_{qs}) ayirmasiga teng

$$Q_{uq} = Q_{ss} - Q_{qs}$$

10. Sof foyda (F_{sf}) umumxo'jalik faoliyatining foydasi (F_{ux}) bilan soliq to'langunga qadar foyda (F_{ts}) ayirmasiga teng

$$F_{sf} = F_{ux} - F_{ts}$$

11. Rentabellik darajasi:

11.1. Ishlab chiqarish tannarxiga nisbatan rentabellik darajasi (R_{ut}) sof foydaning (F_{sf}) ishlab chiqarish tannarxiga nisbat ko'rinishida ifodalanadi:

$$R_{ut} = F_{sf} * 100 / T_{is}$$

11.2. Umumiy xarajatlarga nisbatan rentabellik darajasi (R_{ut}) sof foydaning (F_{sf}) umumiy xarajatlarga (X_{um}) bo'lgan nisbat ko'rinishida ifodalanadi:

$$R_{ut} = F_{sf} * 100 / X_{um}$$


12. Omuxta yem mahsulotlari bo'yicha kompleks ishlab chiqarish xarajatlari va qo'shimcha mahsulot ishlab chiqarish shartlari quyidagi tengsizliklar ko'rinishida ifodalanadi:

$$T_{is} > Q_{xa}; X_{um} > T_{is}; F_{sf} < F_{ux}$$

Demak, ushbu model va algoritmlar ma'lum bir davr (oy, chorak, yil) uchun kompleks ishlab chiqarish xarajatlarini taqsimlash va qo'shimcha mahsulot ishlab chiqarishni ifodalab berish qoidasi sifatida foydalanishga imkoniyat beradi. Ularning tipik shartlari reja davriga mutanosib ravishda miqdor va sifat jihatdan olib umumlashtiriladi va tizimlashtiriladi.

Muhokama va natijalar. Sun'iy intellekt texnologiyalari sharoitida kompleks ishlab chiqarish xarajatlari va qo'shimcha mahsulot ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'lgan boshqaruv qarorlarini ishlab chiqish muammolar yechimini topishda ikki yoki undan ko'proq variantlarni taqqoslagan holda ulardan optimal variantini tanlab olishni taqozo etadi. Buning uchun kompyuterda empirik tadqiqotni amalga oshirishda funksional, dasturiy, axborot ta'minoti va boshqa tadbirlar ishlab chiqilishni taqozo etadi.

Funksional ta'minot korxonada kompleks ishlab chiqarish xarajatlarini taqsimlash va qo'shimcha mahsulot ishlab chiqarish xususiyatlari hisobga olgan holda ishlab chiqarish dasturining modellari va algoritmlariga asoslanadi.



1 – rasm. Don mahsulotlarining kompleks ishlab chiqarish xarajatlari va qo'shimcha mahsulot ishlab chiqarish samaradorligini baholash mexanizmi

Ular o'rtasidagi aloqadorliklar yagona axborot bazasiga asoslanadi. Axborotlarni qayta ishlashda axborot manbaiga kiritiladigan va chop etiladigan natijalar alohida guruhlariga ajratiladi. Xotiraga kiritiladigan axborotlar esa kompleks ishlab chiqarish xarajatlari va qo'shimcha mahsulot ishlab chiqarish bilan bog'liq axborotlar to'plamini tashkil etadi [2; 459 — 471].

Kompyuter xotirasidagi ma'lumotlar asosida kompleks ishlab chiqarish xarajatlari va qo'shimcha mahsulot ishlab chiqarish ko'rsatkichlar tizimi tahlil qilinadi. Tadqiqotda dialog asosida hisob-kitob iteratsiyalaridan olingan natijalarga qarab, tajribani davom ettirish yoki tugatish borasida qaror qabul qilinadi. Qo'yilgan masalaning tizimli axborot va mantiqiy aloqalar qoidasiga asoslanib funksional, dasturiy va axborot ta'minoti asosida donni qayta ishlash korxonalarida kompleks ishlab chiqarish xarajatlarini optimal taqsimlash va qo'shimcha mahsulot ishlab chiqarish samaradorligini baholash sxemasini ishlab chiqdik (1-rasm).

Kompleks ishlab chiqarish xarajatlari taqsimoti va qo'shimcha mahsulot ishlab chiqarishni boshqarish bo'yicha ishlab chiqilgan ssenariylar orqali don mahsulotlarining alohida turlari bo'yicha kompleks ishlab chiqarish xarajatlarining samaradorligini baholash mumkin. Bunda turli darajadagi menejerlar axborotlar bazasiga murojaat qilganda erishilgan natijalar qanoatlantirmasa, protsedura ijobiy natija erishilgunga qadar takroriy murojaat qilib, muqobil variantlar bo'yicha qarorlar qiyosiy baholanadi.

1 – jadval. “Do'stlikdonmahsulotlar” AJ da un mahsulotlarining ssenariy bo'yicha kompleks ishlab chiqarish xarajatlari taqsimoti*

(ming so'mda)

Ko'rsatkichlar	Haqiqatda	Ssenariy		
		1	2	3
Un mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tn	24200.00	26620.00	29040.00	31460.00
Sarflanadigan don miqdori, tn	32279.68	35507.65	38735.61	41963.58
Donning ulgurji bahosi	1347.83	1347.83	1347.83	1347.83
Donning dastlabki ulgurji qiymati	43507389.28	47858128.21	52208867.14	56559606.06
Transport xarajatlari — jami	2117356.82	2329092.50	2540828.18	2752563.86
shundan:				
a) temir yo'l xarajatlari	0.00	0.00	0.00	0.00
b) avtomobil xarajatlari	1087814.00	1196595.40	1305376.80	1414158.20
v) ichki tashish xarajatlari	376939.00	414632.90	452326.80	490020.70
g) jamg'arma foizi	652603.82	717864.20	783124.58	848384.96
Donning umumiy qiymati transport xarajatlari bilan birga	45624746.10	50187220.70	54749695.31	59312169.92
Qo'shimcha mahsulotlar — jami	7748090.00	8522899.00	9297708.00	10072517.00
shundan:				
a) kepak	7068844.00	7775728.40	8482612.80	9189497.20
b) don chiqindisi	679246.00	747170.60	815095.20	883019.80
Qo'shimcha mahsulot ajratilgandan keyingi donning umumiy qiymati	37876656.10	41664321.70	45451987.31	49239652.92
Tashish, saqlash va ishlab chiqarishda yo'qotilgan don qiymati	1391669.40	1530836.34	1670003.28	1809170.22
Bevosita va bilvosita xarajatlar	10068918.40	10400736.70	10732555.00	11064373.30
Yoqilg'i	61298.60	67428.46	73558.32	79688.18
Ehtiyot qismlar	337033.40	370736.74	404440.08	438143.42

Qurilish materiallari	48496.80	53346.48	58196.16	63045.84
Boshqa materiallar — jami	1592989.20	1752288.12	1911587.04	2070885.96
shundan:				
a) vitamin	686771.80	755448.98	824126.16	892803.34
b) ip	6050.00	6655.00	7260.00	7865.00
v) etiketka	26741.00	29415.10	32089.20	34763.30
g) qop	753660.60	829026.66	904392.72	979758.78
d) boshqalar	119765.80	131742.38	143718.96	155695.54
Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga to'lanadigan xarajatlar	1278365.00	1406201.50	1534038.00	1661874.50
shundan:				
a) elektroenergiya xarajatlari	954956.20	1050451.82	1145947.44	1241443.06
b) suv xarajatlari	12342.00	13576.20	14810.40	16044.60
v) gaz xarajatlari	0.00	0.00	0.00	0.00
g) boshqalar	311066.80	342173.48	373280.16	404386.84
Mehnat haqi	4549406.40	4549406.40	4549406.40	4549406.40
Yagona ijtimoiy to'lov	545928.00	545928.00	545928.00	545928.00
Asosiy vositalar amortizatsiyasi	1655401.00	1655401.00	1655401.00	1655401.00
Boshqa xarajatlar	0.00	0.00	0.00	0.00
Ishlab chiqarish tannarxi — jami	49337243.90	53595894.74	57854545.59	62113196.44
Davr xarajatlari — jami	2315501.10	2315501.10	2315501.10	2315501.10
shundan:				
a) ma'muriy-boshqaruv xarajatlar	330281.60	330281.60	330281.60	330281.60
b) sotish xarajatlari	605338.80	605338.80	605338.80	605338.80
v) boshqa operatsion xarajatlar	1379880.70	1379880.70	1379880.70	1379880.70
shundan:				
yer solig'i	274355.40	274355.40	274355.40	274355.40
suv solig'i	2758.80	2758.80	2758.80	2758.80
mulk solig'i	200884.20	200884.20	200884.20	200884.20
boshqa xarajatlar	901882.30	901882.30	901882.30	901882.30
Moliyaviy faoliyat xarajatlari	122548.80	122548.80	122548.80	122548.80
shundan:				
kredit foizi	122548.80	122548.80	122548.80	122548.80
Umumiy ishlab chiqarish xarajatlari — hammasi	51775293.80	56033944.64	60292595.49	64551246.34
Umumxo'jalik faoliyatining foydasi	517760.20	1488414.76	2459069.31	3429723.86
Daromad solig'i to'langunga qadar foyda	77664.01	223262.21	368860.40	514458.58
Mahsulotning ulgurji sotish qiymati	52293054.00	57522359.40	62751664.80	67980970.20
Qo'shilgan qiymat solig'i	13808731.77	15189604.95	16570478.12	17951351.30
Un mahsulotining ulgurji qiymati (qo'shilgan qiymat solig'i bilan)	66101758.77	72711964.35	79332142.92	85932321.50
Sof foyda	440096.17	1265152.54	2090208.91	2915265.28
Tannarxga nisbatan rentabellik	0.89	2.36	3.61	4.69
Xarajatlarga nisbatan rentabellik	0.85	2.26	3.47	4.52

*«Do'stlik don mahsulotlari» AJ ning moliyaviy va statistik ma'lumotlari asosida tuzilgan.

1 – jadvaldagi ma'lumotlarga ko'ra, ssenariylar bo'yicha un mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi haqiqatdagi don miqdoriga nisbatan 26620 tn, 29040 tn va 31460 tn ga, ularga sarflanadigan don miqdori hajmi ham mos ravishda 35507,65 tn, 38735, 61 tn va 41963,58 tn ga ko'paygan. Mahsulot ishlab chiqarish tannarxi 53595894.74 ming so'mni, 57854545.59

ming so'mni, 62113196.44 ming so'mni; Umumiy ishlab chiqarish xarajatlari ham mos ravishda 56033944.64 ming so'mni, 60292595.49 ming so'mni, 64551246.34 ming so'mni tashkil etgan. Natijada sof foyda olish 1265152.54 ming so'm, 2090208.91 ming so'm va 2915265.28 ming so'm taklif etiladi. Tannarxga nisbatan rentabellik darajasi 2,36%, 3,61%, 4,69%; umumiy ishlab chiqarish xarajatlariga nisbatan rentabellik darajasi 2,26%, 3,47%, 4,52% ni tashkil etadi.

2 – jadval. “Do'stlik don mahsulotlar” AJ da omixta yem mahsulotlarining ssenariy bo'yicha kompleks ishlab chiqarish xarajatlari taqsimoti**

(ming so'mda)

Ko'rsatkichlar	Haqiqatda	Ssenariy		
		1	2	3
Omixta yem mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tn	17000.00	18700.00	20400.00	22100.00
Xom-ashyo miqdori — jami, tn	17170.00	18887.00	20604.00	22321.00
a) kepak, tn	9254.63	10180.09	11105.56	12031.02
b) tariq, tn	206.04	226.64	247.25	267.85
v) makka doni, tn	978.69	1076.56	1174.43	1272.30
g) un, tn	497.93	547.72	597.52	647.31
d) ohak uni, tn	343.30	377.74	412.08	446.42
ye) bug'doy chiqindisi (70 – 85%), tn	240.38	264.42	288.46	312.49
yo) bug'doy chiqindisi (50 – 70%), tn	4807.60	5288.36	5769.12	6249.88
j) arpa, tn	841.33	925.46	1009.60	1093.73
Xom-ashyoning bahosi:	x	x	x	x
a) kepak	925.45	925.45	925.45	925.45
b) tariq	2200.00	2200.00	2200.00	2200.00
v) makka doni	3043.48	3043.48	3043.48	3043.48
g) un	1130.00	1130.00	1130.00	1130.00
d) ohak uni	390.00	390.00	390.00	390.00
ye) bug'doy chiqindisi (70 – 85%)	876.16	876.16	876.16	876.16
yo) bug'doy chiqindisi (50 – 70%)	626.16	626.16	626.16	626.16
j) arpa	2825.00	2825.00	2825.00	2825.00
Xom-ashyoning qiymati — jami	18290869.89	20119956.88	21949043.87	23778130.86
a) kepak	8564678.82	9421146.71	10277614.59	11134082.47
b) tariq	453288.00	498616.80	543945.60	589274.40
v) makka doni	2978621.48	3276483.63	3574345.78	3872207.93

g) un	562660.90	618926.99	675193.08	731459.17
d) ohak uni	133926.00	147318.60	160711.20	174103.80
ye) bug'doy chiqindisi (70 – 85%)	210610.62	231671.68	252732.74	273793.81
yo) bug'doy chiqindisi (50 – 85%)	3010326.82	3311359.50	3612392.18	3913424.86
j) arpa	2376757.25	2614432.98	2852108.70	3089784.43
Mexanik yo'qotishlar – 1%	0.00	0.00	0.00	0.00
Xom – ashyoning umumiy qiymati	18290869.89	20119956.88	21949043.87	23778130.86
Yordamchi materiallar	0.00	0.00	0.00	0.00
Elektroenergiya	113832.00	125215.20	136598.40	147981.60
Transport xarajatlari — jami	84446.82	92891.51	101336.19	109780.87
shundan:				
a) temir yo'l xarajatlari	0.00	0.00	0.00	0.00
b) avtomobil xarajatlari	57056.30	62761.93	68467.56	74173.19
v) ichki tashish xarajatlari	27390.52	30129.58	32868.63	35607.68
Ehtiyot qismlar	115607.70	127161.87	138722.04	150282.21
Mehnat haqi	1294482.00	1294482.00	1294482.00	1294482.00
Yagona ijtimoiy to'lov	155337.84	155337.84	155337.84	155337.84
Asbob-uskunani saqlash	240593.00	240593.00	240593.00	240593.00
Asosiy vositalar amortizatsiyasi	334678.30	334678.30	334678.30	334678.30
Boshqa xarajatlar	271248.35	271248.35	271248.35	271248.35
Ishlab chiqarish tannarxi — jami	20901089.91	22761564.95	24622039.99	26482515.03
Davr xarajatlari — jami	1768604.70	1768604.70	1768604.70	1768604.70
shundan:				
a) ma'muriy- boshqaruv xarajatlar	267642.50	267642.50	267642.50	267642.50
b) sotish xarajatlari	66955.90	66955.90	66955.90	66955.90
v) boshqa operatsion xarajatlar	1434006.30	1434006.30	1434006.30	1434006.30
shundan:				

yer solig'i	54950.00	54950.00	54950.00	54950.00
suv solig'i	0.00	0.00	0.00	0.00
mulk solig'i	69564.00	69564.00	69564.00	69564.00
boshqa xarajatlari	1309492.30	1309492.30	1309492.30	1309492.30
Moliyaviy faoliyat xarajatlari	60818.80	60818.80	60818.80	60818.80
Umumiy ishlab chiqarish xarajatlari — hammasi	22730513.14	24590988.45	26451463.49	28330184.17
Umumxo'jalik faoliyatining foydasi	1071951.59	1591723.05	2111494.51	2613020.33
Daromad solig'i to'langunga qadar foyda	160792.74	238758.46	316724.18	391953.05
Mahsulotning ulgurji sotish qiymati	23802465.00	26182711.50	28562958.00	30943204.50
Qo'shilgan qiymat solig'i	3570369.75	3927406.73	4284443.70	4641480.68
Mahsulotining ulgurji qiymati (qo'shilgan qiymat solig'i bilan birga)	27372834.75	30110118.23	32847401.70	35584685.18
Sof foyda	911158.85	1352964.59	1794770.33	2221067.28
Tannarxga nisbatan rentabellik	4.36	5.94	7.29	8.39
Xarajatlarga nisbatan rentabellik	0.04	0.06	0.07	0.08

**«Do'stlik don mahsulotlari» AJ ning moliyaviy va statistik ma'lumotlari asosida tuzilgan.

2 – jadvaldagi ma'lumotlarga ko'ra, ssenariylar bo'yicha omixta yem mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi haqiqatga nisbatan 187000 tn, 20400 tn va 22100 tn ga, ularga sarflanadigan xom ashyo miqdori hajmi ham mos ravishda 18887 tn, 20604 tn va 22321 tn ga ko'paygan. Mahsulot ishlab chiqarish tannarxi 22761564.95 ming so'mni, 24622039.99 ming so'mni, 26482515.03 ming so'mni; Umumiy ishlab chiqarish xarajatlari ham mos ravishda 24590988.45 ming so'mni, 26451463.49 ming so'mni, 28330184.17 ming so'mni tashkil etgan. Natijada sof foyda olish 1352964.59 ming so'm, 1794770.33 ming so'm va 2221067.28 ming so'm taklif etiladi. Tannarxga nisbatan rentabellik darajasi 5,94%, 7,29%, 8,39%; umumiy ishlab chiqarish xarajatlariga nisbatan rentabellik darajasi 0,06%, 0,07%, 0,08% ni tashkil etadi.

3 – jadvalda sun'iy intellekt texnologiyalari va ilmiy asoslangan maqbul qarorlar qabul qilish asosida «Do'stlik don mahsulotlari» AJ ning un va omixta yem mahsulotlari kompleks ishlab chiqarish xarajatlarini taqsimlash va qo'shimcha mahsulot ishlab chiqarishni

boshqarishning moliyaviy strategiyasi bo'yicha 2030 yilgacha mo'ljallangan o'rta va uzoq muddatli prognoz ko'rsatkichlari keltirilgan.

3 – jadval. «Do'stlikdon mahsulotlari» AJ ning un va omixta yem mahsulotlari kompleks ishlab chiqarish xarajatlari taqsimlanishi bo'yicha retrospektiv va prognoz ko'rsatkichlari***


Yil	Un mahsuloti, ming so'm				Omixta yem mahsuloti, ming so'm			
	Un mahsuloti hajmi	Ishlab chiqarish tannarxi	Umumiy xarajatlar	Sof foyda	Omixta yem mahsuloti hajmi	Ishlab chiqarish tannarxi	Umumiy xarajatlar	Sof foyda
2011	57909487	42723138	44834389	364019	18291291	16061750	17467537	700191
2012	56997084	42050006	44127993	358283	18003099	15808685	17192323	689159
2013	59495393	45183169	47415988	373988	18792215	16501615	17945901	719366
2014	60304560	44452444	46649153	379094	19047798	16726045	18189974	729150
2015	59824732	44080072	46258379	376058	18896240	16592960	18045241	723349
2016	61956058	46622713	48926670	389455	19569440	17184104	18688124	749119
2017	65451199	48184926	50566083	411426	20673416	18153515	19742382	791379
2018	64072091	45238846	47474416	402757	20237811	17771006	19326394	774704
2019	67243643	49138897	51567196	422693	21239577	18650666	20283046	813052
2020	65394783	46133647	48413436	411071	20655596	18137867	19725364	790697
2021	69085175	50775069	53284223	434269	20154762	17698081	19247086	771525
2022	70012188	49337244	51775294	440096	23802465	20901090	22730513	911159
2023	70921646	49978086	52447855	445813	24170342	21068800	22912824	918489
2024	72335430	51065465	53588955	454700	24170314	20521536	22317661	925241
2025	73922326	51779166	54337922	464675	24351702	21067151	22911030	932184
2026	75172372	52207362	54787276	472533	24900304	21532222	23416807	951575
2027	76704585	53080441	55703497	482164	25615827	22094087	24027848	978685
2028	78253222	53774717	56432079	491899	26364837	22677177	24661973	1007054
2029	79463716	54236622	56916807	499508	27025721	23177485	25206070	1032041
2030	80783934	55019059	57737906	507807	27745853	23722775	25799086	1059285

***«Do'stlik don mahsulotlari» AJ ning moliyaviy va statistik ma'lumotlari asosida tuzilgan.

2 – jadvaldagi ma'lumotlarga ko'ra, 2024-2030-yilgacha un mahsulotlarini ishlab chiqarish uchun sarflanadigan umumiy xarajatlar 53588955 ming so'mdan 57737906 ming so'mgacha, ishlab chiqarish tannarxi 51065465 ming so'mdan 55019059 ming so'mgacha, sof foyda esa 454700 ming so'mdan 507807 ming so'mgacha miqdorga ko'payishi mumkin. Omixta yem mahsulotini ishlab chiqarish uchun sarflanadigan umumiy xarajatlar 22317661 ming so'mdan 25799086 ming so'mgacha, ishlab chiqarish tannarxi 20521536 ming so'mdan 23722775 ming so'mgacha, sof foyda esa 925241 ming so'mdan 1059285 ming so'mgacha miqdorga ko'payishi mumkin.


2-rasmda 2024-yildan 2030-yilgacha davr uchun un mahsulotlarini ishlab chiqarish bo'yicha prognoz ma'lumotlari asosida grafik tuzilgan. Grafikda un mahsulotini ishlab chiqarish funksiyasining ko'rinishi $y = 19793x^2 + 84023x + 6e^7$, funksiya bilan omillar o'rtasidagi bog'liqlik $R^2 = 0,9763$ ga; ishlab chiqarish tannarxi bo'yicha funksiya $y = 683884x + 4e^7$ ko'rinishi va funksiya bilan omillar o'rtasidagi bog'liqlik $R^2 = 0,9283$ ga; umumiy ishlab

chiqarish xarajatlari bo'yicha funksiya $y = 651682x + 4e^7$ ko'rinishi va funksiya bilan omillar o'rtasidagi bog'liqlik $R^2 = 0,9283$ ga teng.




2 – rasm. Un mahsulotlari ko'rsatkichlarining prognozi

3-rasmda 2024-yildan 2030-yilgacha davr uchun omixta yem un mahsulotlarini ishlab chiqarish bo'yicha prognoz ma'lumotlari asosida grafik tuzilgan. Grafikda un mahsulotini ishlab chiqarish funksiyasining ko'rinishi $y = 13367x^2 + 239893x + 2e^7$, funksiya bilan omillar o'rtasidagi bog'liqlik $R^2 = 0,9588$ ga; mahsulot ishlab chiqarish tannarxi bo'yicha funksiya $y = 459461x + 2e^7$ ko'rinishi va funksiya bilan omillar o'rtasidagi bog'liqlik $R^2 = 0,9419$ ga; umumiy ishlab chiqarish xarajatlari bo'yicha funksiya $y = 422483x + 1e^7$ ko'rinishi va funksiya bilan omillar o'rtasidagi bog'liqlik $R^2 = 0,9419$ ga teng.



3 – rasm. Omixta yem mahsulotlari ko'rsatkichlarining prognozi

4-rasmda 2024-yildan 2030-yilgacha davr uchun un va omixta yem mahsulotlari bo'yicha sof foydaning prognoz ma'lumotlari asosida grafik tuzilgan. Grafikda un mahsulotlari bo'yicha sof foyda funksiyasining ko'rinishi $y = 503,78x^2 + 9195,3x + 679528$, funksiya bilan omillar o'rtasidagi bog'liqlik $R^2 = 0,9596$; omixta yem mahsulotlari bo'yicha sof foyda funksiyasi $y = 351053e^{0,0186x}$ ko'rinishi va funksiya bilan omillar o'rtasidagi bog'liqlik $R^2 = 0,9851$ ga teng.



4 – rasm. Un va omixta yem mahsulotlaridan olingan sof foyda ko'rsatkichlarining prognozi

Demak, «Do'stlik don mahsulotlari» aksiyadorlik jamiyatida ishlab chiqarish samaradorligini oshirish va xarajatlarni kamaytirish uchun ishlab chiqarishning ichki zaxiralarni izlab topish, ichki salohiyatdan oqilona foydalanish, sifatli un va omixta yem mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini oshirish, umumiy xarajatlarni kamaytirish imkoniyatlari mavjud ekan.

Xulosa. Tadqiqot orqali donni qayta ishlash korxonalarida alohida mahsulotlar bo'yicha kompleks ishlab chiqarish xarajatlarini va qo'shimcha mahsulot ishlab chiqarish jarayonlarining algoritmlari ishlab chiqildi, don mahsulotlarining alohida turi bo'yicha ssenariylar asosida kompleks ishlab chiqarish xarajatlarining samaradorligi baholandi, sun'iy intellekt texnologiyalari va ilmiy asoslangan maqbul qarorlar qabul qilish asosida «Do'stlik don mahsulotlari» AJ ning un va omixta yem mahsulotlari kompleks ishlab chiqarish xarajatlarini taqsimlash va qo'shimcha mahsulot ishlab chiqarishni boshqarishning moliyaviy strategiyasi bo'yicha 2030-yilgacha mo'ljallangan o'rta va uzoq muddatli prognoz ko'rsatkichlari ishlab chiqildi. Natijada korxonada un mahsuloti ishlab chiqarish hajmining 22,47 foizli bandga, omixta yem mahsuloti ishlab chiqarish hajmining 32,14 foizli bandga ko'payganligi un va omixta yem mahsulotlarining ko'payish tendensiyasiga sarflangan umumiy xarajatlar ijobiy ta'sir ko'rsatar ekan va ishlab chiqarish samaradorligini oshirishda ijobiy tendensiyani yuzaga keltiradi. Korxonada un va omixta yem mahsulotlarini ishlab chiqarish tendensiyasiga umumiy xarajatlar omilining 16,98 foizga ko'payishi mahsulotlar hajmining ko'payishiga, ishlab chiqarish samaradorligining oshishiga olib keladi.

Korxonada un mahsuloti ishlab chiqarish hajmining 22,47 foizli bandga, omixta yem mahsuloti ishlab chiqarish hajmining 32,14 foizli bandga ko'payishi un mahsulotidan olingan sof foydaning 22,46 foizga, omixta yem mahsulotidan olingan sof foydaning 31,18 foizga oshishiga olib kelar ekan. Bu holat korxonada mahsulot ishlab chiqarishning iqtisodiy samaradorligini oshirishda ijobiy tendensiyalarni yuzaga keltiradi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Abdullayev A. @Abdullayev J. (2024). Improvement of scientific methodological approaches of complex production accounting in grain processing factories // The Seybold report. ISSN 1533 – 9211. p. 415 – 428. DOI: 10.5281/zenodo.13986497

2. Abdullayev A. (2025). Management and Cost Accounting. Southwestern Cengage Learning: Printed in China by RR Donnelley. 866 p. DOI: [10.4236/ojbm.2025.131025](https://doi.org/10.4236/ojbm.2025.131025)
3. Colin Drury (2017). Management and Cost Accounting. South-Western Cengage Learning: Printed in China by RR Donnelley. 866 p. http://116.206.63.139:8080/xmlui/bitstream/handle/123456789/1303/cl18_Drury_MgtCostAcc10e-wm.pdf?sequence=1&isAllowed=y
4. Бондин И.А. Механизм управления издержками производства в сельскохозяйственных организациях //Автореферат диссертации на соискание ученой степени доктора экономических наук. – Саранск: Издательство Мордовского университета, 2011. – с. 45.
5. Изыкова А.В. Издержки производства молока: основные факторы и резервы снижения //Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата экономических наук. – Москва: Центр оперативной полиграфии ФГОУ ВПО РГАУ - МСХА им. К.А. Тимирязева, 2006. – с. 24.
6. Кочетов В.Л. Разработка инструментов управления издержками производства на предприятиях мукомольной промышленности //Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата экономических наук. – Таганрог: Издательский центр Ростовского государственного педагогического университета, 2004. – с. 24.
7. Макарова Е.Н. Учетно-аналитическое обеспечение управления издержками производства перерабатывающих предприятий потребительской кооперации //Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата экономических наук. - Саратов: Издательский центр Саратовского государственного социально-экономического университета, 2005. - с. 20.

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOYIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ 3 (5) – 2025

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).